



Toshkent davlat
sharqshunoslik universiteti

XXI ASR: FAN VA TA'LIM MASALALARI

ilmiy elektron jurnali

ISSN: 2181-9874



EDUCATION

2025

O‘ZBEKISTON YER OSTI BOYLIKLARINING SOVET HOKIMIYATI YILLARIDA O‘ZLASHTIRILISHI HAQIDA (XX ASRNING 60-70-YILLARI)

Izzatillaxon Maxmutalievich Xaydarov
Professor v.b., tarix fanlari doktori (DSc).
“Markaziy Osiyo xalqlari tarixi” kafedrası
Toshkent davlat sharqshunoslik universituti

Annotatsiya. Mazkur maqolada XX asrning 60–70-yillarida O‘zbekiston SSR hududida yer osti boyliklarining o‘zlashtirilishi, bu jarayonning Sovet iqtisodiy siyosatidagi o‘rni va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida geologiya-qidiruv ishlarining kengayishi, yangi foydali qazilma konlarining ochilishi hamda ularning umumittifoq iqtisodiyotiga xizmat qilganligi yoritiladi. Shuningdek, tabiiy resurslardan haddan tashqari foydalanish natijasida yuzaga kelgan ekologik va iqtisodiy muammolarga ham e’tibor qaratilgan. Maqola tarixiy manbalar va arxiv hujjatlariga tayanib yozilgan bo‘lib, sovet davrida O‘zbekiston iqtisodiy mustaqilligining cheklanish jarayonini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: Sovet davri, O‘zbekiston SSR, yer osti boyliklari, geologiya-qidiruv, foydali qazilmalar, rangli metallurgiya, iqtisodiy siyosat, sanoatlashtirish, tabiiy resurslar, ekologik oqibatlar.

ОБ ОСВОЕНИИ ПОДЗЕМНЫХ РЕСУРСОВ УЗБЕКИСТАНА В СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД (1960-Е–1970-Е ГОДЫ)

Иззатиллахон Махмуталиевич Хайдаров
Профессор, доктор исторических наук.
Кафедра «История народов Центральной Азии»
Ташкентский государственный университет востоковедения

Аннотация. В статье анализируется освоение недр на территории Узбекской ССР в 60-70-е годы XX века, роль этого процесса в советской экономической политике и его социально-экономические последствия. В исследовании освещаются расширение геологоразведочных работ, открытие новых месторождений полезных ископаемых и их вклад в общесоюзную экономику. Также уделяется внимание экологическим и экономическим проблемам, возникшим в результате чрезмерного

использования природных ресурсов. Статья на основе исторических источников и архивных документов раскрывает процесс ограничения экономической независимости Узбекистана в советский период.

Ключевые слова: Советская эпоха, Узбекская ССР, недра, геологоразведка, полезные ископаемые, цветная металлургия, экономическая политика, индустриализация, природные ресурсы, экологические последствия.

ON THE DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN'S UNDERGROUND RESOURCES DURING THE SOVIET PERIOD (1960S–1970S)

Izzatillakhon Makhmutalievich Khaydarov

Professor, Doctor of Historical Sciences (DSc).

Department of “History of the Peoples of Central Asia”

Tashkent State University of Oriental Studies

Annotation. *The article analyses the development of mineral resources in the Uzbek SSR in the 1960s and 1970s, the role of this process in Soviet economic policy, and its socio-economic consequences. The study highlights the expansion of geological exploration, the discovery of new mineral deposits, and their contribution to the Soviet economy. It also focuses on the environmental and economic problems that arose as a result of the excessive use of natural resources. Based on historical sources and archival documents, the article reveals the process by which Uzbekistan's economic independence was limited during the Soviet period.*

Keywords: *Soviet era, Uzbek SSR, subsoil, geological exploration, minerals, non-ferrous metallurgy, economic policy, industrialisation, natural resources, environmental consequences.*

KIRISH

Sovet hokimiyati yillarida O‘zbekiston iqtisodiyoti Markaz tomonidan ishlab chiqilgan rejalashtirilgan xo‘jalik tizimiga qat’iy bog‘lab qo‘yildi. Ushbu tizimda respublikaning tabiiy resurslar bazasi umumittifoq miqyosida foydalanish uchun mo‘ljallangan strategik manba sifatida qaraldi. XX asrning 60–70-yillarida bu jarayon yanada jadallashdi: O‘zbekiston SSR hududida yirik geologiya-qidiruv ishlari olib borilib, ko‘plab rangli metall, uran, oltin, mis, ko‘mir va boshqa foydali qazilma konlari ochildi.

Sovet Ittifoqining iqtisodiy siyosati O‘zbekistonni xom ashyo yetkazib beruvchi mintaqaga aylantirdi. Natijada respublika hududida qazib olingan boyliklar asosan markaziy hududlarga yuborilib, mahalliy iqtisodiyotda qayta ishlash sohalari yetarli darajada rivojlantirilmadi. Shu bilan birga, tabiiy resurslardan keskin foydalanish ekologik muvozanatni buzib, ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklarni keltirib chiqardi. Shunday qilib, bu davr O‘zbekiston tarixida sanoatlashuv bilan birga, iqtisodiy mustaqillikning cheklanish davri sifatida ham namoyon bo‘ldi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani tayyorlashda tarixiy-tahliliy, qiyosiy va statistik metodlardan foydalanildi. Sovet davri arxiv hujjatlari, O‘zbekiston SSR Davlat rejalashtirish qo‘mitasi hisobotlari, o‘sha yillardagi iqtisodiy nashrlar hamda zamonaviy tadqiqotchilar ishlari tahlil qilindi. Shuningdek, iqtisodiy va ekologik ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlik tarixiy kontekstda o‘rganilib, resurslardan foydalanishning ijtimoiy oqibatlari haqida xulosalar chiqarildi. Tadqiqotning metodologik asosini tarixiy ob‘ektivlik va kompleks yondashuv tamoyillari tashkil etdi.

MUHOKAMA

O‘zbekiston SSRda olib borilgan yer osti boyliklarini o‘zlashtirish siyosati sovet iqtisodiyotining markazlashgan boshqaruv tizimi doirasida amalga oshirildi. 1960–1970-yillarda respublikada geologik tadqiqot ishlarining ko‘lami kengayib, “O‘zbekgeologiya”, “Sredazgeologiya” kabi ilmiy-ishlab chiqarish muassasalari faoliyat ko‘rsatdi. Natijada Muruntov oltin koni, Almalyk mis koni, Angren ko‘mir havzasi va boshqa strategik ahamiyatga ega ob‘ektlar ishga tushirildi.

Bu jarayon Sovet Ittifoqining sanoat kompleksi uchun katta ahamiyat kasb etgan bo‘lsa-da, mahalliy aholi manfaatlari ko‘pincha e’tibordan chetda qoldi. Yer osti boyliklaridan olingan daromadlarning asosiy qismi markaziy byudjetga yo‘naltirildi. Shu sababli respublika hududida iqtisodiy tengsizlik, ekologik buzilish va tabiiy resurslarning cheksiz ekspluatatsiyasi kuchaydi. Ayniqsa, konchilik va metallurgiya sanoatining rivojlanishi bilan atmosfera va suv resurslari ifloslanib, ekologik muvozanatga jiddiy zarar yetkazildi.

Sovet hokimiyati yillarida O‘zbekiston xalq xo‘jaligini rivojlantirish yo‘nalishlari, qabul qilingan rasmiy hujjatlarga muvofiq, respublikaning umumittifoq mehnat taqsimotidagi roli va ahamiyatini oshirish, uning tabiiy

boyliklari, mehnat resurslari va mavjud ishlab chiqarish vositalaridan yanada to’laroq foydalanish negizida ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltirishni ko’zda tutgan edi. Bu vazifani amalda yechish, respublika ishlab chiqaruvchi kuchlarini rivojlantirish masalasi, asosan, paxtachilik kompleksiga berilgan ustuvor e’tibor orqali hal etilishi mo’ljallandi.

O‘zbekiston SSR xo‘jaligining ishlab chiqarish ixtisoslashuvi sovet davlati uchun muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lgan, boy tabiiy resurslardan foydalanish evaziga barpo etiladigan rangli metallurgiya va nodir metallar kompleksida o‘z aksini topgan bo‘lsa, umumittifoq ahamiyatiga ega bo‘lgan yana bir kompleks – ko‘mir sanoati hisoblanardi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, sovet hokimiyati o‘rnatilgan dastlabki yillaridanoq Turkiston zaminidagi tabiiy boyliklar rejali ravishda o‘rganila va o‘zlashtirila boshlangan. Agar ilgari tadqiqotlar ayrim olimlar tomonidan yakka tartibda olib borilgan bo‘lsa, keyinchalik, foydali qazilmalarni qidirib topish va samarali o‘rganish borasida kompleks ishlarni amalga oshiradigan maxsus yirik ilmiy, ilmiy-ishlab chiqarish muassasalari tashkil etildi va ular muntazam moliyalashtirib borildi.

Jumladan, O‘zbekistonda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot va geologiya-qidiruv ishlarining hajmi yildan-yilga kengayib bordi. Respublika tabiiy boyliklarini qidirish sohasida olib borilgan tashkiliy ishlar bu boyliklarni o‘rganish hamda o‘zlashtirish sohasida katta natijalarga erishishga imkon yaratdi. Natijada, O‘zbekistonda ilgari faraz ham qilinmagan qimmatbaho foydali qazilmalarning ko‘pgina konlari ochilib, “bitmas va tunganmas”dek tuyulgan respublika boyliklaridan sotsialistik xo‘jalikning moddiy xom ashyo bazasi sifatida uzoq yillar ayovsiz foydalanildi.

Shu davr ichida sovet hokimiyatining beg‘arazdek ko‘ringan yordami va respublikaga safarbar etilgan ko‘plab geologiya-qidiruv otryadlarining chuqur o‘rganuvi natijasida respublikada sanoatning rangli metallurgiya, neft, gaz, ayniqsa ko‘mir qazib olish sohasi sezilarli rivojlandi. Zero, sobiq Markaz rahbariyati respublika hududida tabiiy ko‘mir zaxiralari ham g‘oyat katta ekanini bilib olgan, bu boyliklar Toshkent viloyati va Surxondaryo viloyatlarida joylashgan edi.

Ko‘mir sanoati respublika iqtisodiyotining muhim bo‘g‘inlaridan biri edi. VKP(b) XVI s‘ezdida (1930-y.) mahalliy yoqilg‘ini maksimal darajada ko‘paytirish mumkin bo‘lgan hamma joyda uzoqdan keltiriladigan yoqilg‘i o‘rniga mahalliy yoqilg‘idan foydalanish va buning uchun geologiya-qidiruv ishlarida qat’iy burilish yasash vazifasini qo‘yilgan edi.

Kompartiyaning ko‘rsatmalariga amal qilib O‘zbekiston hududida ham yoqilg‘i zaxiralarini aniqlash uchun geologiya-qidiruv ishlari avj oldirib yuborildi. O‘sha vaqtdayoq Toshkent va Surxondaryo viloyatlarida katta ko‘mir konlari borligi aniqlangan edi. Ayniqsa Ohangaron va Sharg‘unda topilgan ko‘mir konlari katta sanoat ahamiyatiga ega edi.

Angren ko‘mir koni Toshkentdan 120 kilometr narida, Ohangaron daryosining Chotqol va Qurama tog‘lari etagida joylashgan bo‘lib, zahirasi jihatdan O‘rta Osiyoda eng katta ko‘mir konlaridan hisoblanib, ko‘mir konning umumiy maydoni 70 kv.km. tashkil etardi¹. Sharg‘un ko‘mir koni esa Surxondaryo viloyatining Sariosiyo rayonida joylashgan edi.

O‘zbekistonda ko‘mir dastavval 1940-yildan boshlab Angren ko‘mir konida chiqarila boshlandi.

1945-yil 15-sentyabrdagi O‘zbekiston SSR Xalq Xo‘jaligi Kengashining qarori bilan Angren ko‘mir koni qurilishi “Toshkent – Stalinugol” deb nomlangan bo‘lsa, keyinchalik ko‘mir konini nazorat va ekspluatatsiya qilish uchun “O‘zbekugol” teresti tashkl etilib, u 1957-yildan “O‘zbekugol” kombinati deb atala boshladi.

Ohangaron koni faqat ko‘mirgina emas, shu bilan birga chinni gil, o‘tga chidamli gil, ohak boshqa minerallarga ham boy edi. Shuning uchun Ohangaron havzasining o‘zlashtirilishi bu yerda faqat ko‘mir sanoatini yaratish bilan cheklanmasdan, shu bilan birga qurilish materiallari sanoati va boshqa bir necha xil sanoat tarmoqlarini vujudga keltirish uchun ham imkon yaratgan edi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Urush yillarida Ohangaron ko‘mir konini o‘zlashtirish uchun 90 mln so‘m miqdorida mablag‘ ajratilgan edi. Ohangaronda ishga tushirilgan ko‘mir shaxtalaridan urush yillarida 281321 tonna ko‘mir qazib olinib, mamlakat mudofaa sanoatining yoqilg‘iga bo‘lgan eng zarur talablari qondirildi.

Ohangaron ko‘mir konini o‘zlashtirilayotgan bir vaqtda Sharg‘un konida ham ko‘mir qazib chiqaruvchi korxonalar qurila boshlagan edi. Biroq u yerdagi ko‘mir zaxirasi to‘laligicha aniqlanmaganligi bois Sharg‘un ko‘mir konini egallash uchun qilinayotgan ishlarga ham vaqtincha to‘xtatildi. Sharg‘un ko‘mir konini o‘zlashtirish ishlari urushdan keyingi yillarda yana davom ettirildi. 1947-yilda kon ishlariga 2,6 mln (ajratilgan 4,3 mln so‘mdan) so‘m ishlatilgan bo‘lsa, 1948-yilning to‘rt oyida 1,1 mln (o‘zlashtirilishi kerak bo‘lgan 4,0 mln so‘mdan)

¹ ЎЗР ПДА. 58-фонд, 276-рўйхат, 689-йиғма жилд, 31-варақ.
www.sharqjurnali.uz

so‘m mablag‘ sarflandi². Bundan tashqari kon ishlarini yanada jadallashtirish uchun harbiy asirlar mehnatidan ham keng foydalanildi³. Shu bilan Sharg‘unda ko‘mir qazib chiqaruvchi birinchi korxona 1958-yilda ishga tushirildi. Bu yerda ko‘mirni tashish uchun ittifoqda eng yirik bo‘lgan osma kanat yo‘l tashkil qilindi, keyinchalik yiliga 160 ming tonna briket chiqarish quvvatiga ega bo‘lgan briket fabrikasi ishga tushirildi, issiqlik elektr stansiyasi qurildi. Shu bilan bir qatorda Sharg‘un ko‘miri O‘zbekistonning ko‘pgina viloyatlari va boshqa respublikalarga yetkazib turildi. 1958-yilda Sharg‘un ko‘mir konidan jami 35318 tonna ko‘mir qazib olindi (bu ko‘rsatkich rejada belgilangan 115000 tonnani 30,7%ini tashkil etgan edi)⁴.

Beshinchi besh yillikda O‘zbekistonda ko‘mir qazib chiqarishning o‘sishi Markaziy Osiyo respublikalariga nisbatan ancha yuqori bo‘ldi. Bunda Ohangaron 1-ochiq koni muhim rol o‘ynadi. U O‘rta Osiyoda qazib chiqarilgan jami ko‘mirning 30 foizini bergan edi.

Beshinchi besh yillik davrida “Sredazugolgeologiya” tresti ko‘mirni ochiq usulda qazib olishning yangi maydonlarini belgilash sohasida ancha yirik ishlar qilib, ko‘mir razrezining loyiha quvvatini uch marta oshirish uchun uni rekonstruksiya qilishga imkon yaratdi.

Ohangarondagi 9-shaxta ham rekonstruksiya qilinib, uning ko‘mir qazib chiqarish quvvati yiliga 700-900 ming tonnagacha oshirildi. Bu vazifa shaxtadagi barcha ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks mexanizatsiyalash va shaxtalarning ko‘mir chiqarib berish quvvatini oshirish yo‘li bilan amalga oshirildi. Ko‘mir konlarida yangi kuchli ekskavatorlar ishga tushirildi. Agar 1945-yilda 176,128 tonna qo‘mir qazib chiqarilgan bo‘lsa⁵, 1950-yilda 1,475 ming tonna⁶, 1955-yilda esa 2 mln 600 ming tonna qo‘mir qazib chiqarilgan edi⁷. Qisqasi, agar 1941-yildan to 1945-yilgacha bo‘lgan davr ichida respublikadan atiga 281 ming tonna ko‘mir qazib chiqirilgan bo‘lsa, 1946-1950-yillar ichida – 3551 ming tonna, 1951-1955-yillar davomida – 10113 ming tonna ko‘mir qazib olindi⁸.

Oltinchi besh yillikda Ohangaron ko‘miri bilan ishlovchi, umumiy quvvati 600 ming kilovvat-soatga ega bo‘lgan rayon issiqlik elektrostansiyasi qurildi. Bu

² ЎзР ПДА. 58-фонд, 163-рўйхат, 24-йиғма жилд, 236-варақ.

³ ЎзР ПДА. 58-фонд, 214-рўйхат, 24-йиғма жилд, 1-варақ.

⁴ Бухоро ВДА, 1168-фонд, 1-рўйхат, 318-иш, 19-варақ.

⁵ ЎзР ПДА. 58-фонд, 22-рўйхат, 480-йиғма жилд, 11-варақ.

⁶ Ўзбекистон саноати структурасидаги прогрессив силжишлар. – Тошкент: Фан, 1974, 46-бет.

⁷ Ақромов З. Ўзбекистон халқ хўжалиги олтинчи беш йилликда. – Тошкент, 1974, 16-бет.

⁸ ЎзР ПДА. 58-фонд, 276-рўйхат, 689-йиғма жилд, 41-варақ.

elektrostansiya respublikaning eng kuchli va arzon energiya beruvchi issiqlik elektrostansiyalaridan biri edi.

SSSR xalq xo‘jaligini rivojlantirishning 1959-1965-yillarga mo‘ljallangan yetti yillik rejasiga asosan O‘zbekistonda neft va gaz chiqarish ancha tez rivojlantirilishiga qaramasdan Ohangaron ko‘mir sanoatini yanada rivojlantirishga ancha ko‘p mablag‘ sarflandi. Shu bilan birga Ohangaron daryosining oqimi kon ustidan boshqa tomonga ko‘chirilidi. Ko‘mir ustki qatlamlaridan tuproqni olish va ko‘mirning yuqori qatlami hamda qalin qalamlarida ishlash borasida takomillashtirilgan tog‘ transporti uskunalari ishga tushirilgan edi. Natijada Ohangaron ko‘mir konini rekonstruksiyalash tugallanib, uning yillik ko‘mir qazib olish quvvati 1,5 mln tonnadan 4,5 mln tonnaga yetkazildi. Umuman O‘zbekistonda ko‘mir qazib chiqarishning umumiy hajmi 1958- yildagi 2587 ming tonnadan 1965-yilda 4,534 ming tonnaga ko‘paydi⁹, bu esa 1958-yildan 1965-yilgacha O‘zbekistondan qo‘mir qazib chiqarish 128 foizga o‘sganidan dalolat berardi¹⁰.

Sakkizinchi besh yillikda Sharg‘un ko‘mir konida ishlab chiqarish protsesslarini kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish sohasida katta ishlar qilindi va bu yerda ko‘mir qazib chiqarish 1965-yildagi 160 ming tonnadan 1970-yilda 206 ming tonnaga ko‘paytirildi.

O‘zbekiston hudidan ko‘mir qazib olishni ko‘paytirish uchun jadal olib borilgan harakatlar natijasida 1940-yilga nisbatan 1960-yilda 939 marta, 1965-yilda 1320 marta, 1967-yilda esa 1353 marta ko‘p ko‘mir qazib oliingan edi¹¹.

Sakkizinchi besh yillikda respublikaning ko‘mir qazib chiqarish rejasi bajarilgan bo‘lsada, 1970-yilda ko‘mir qazib chiqarishni 5,8 mln tonnaga yetkazish vazifasi bajarilmadi. 1970-yilda O‘zbekistonda jami 3,747 ming tonna ko‘mir qazib chiqarildi. Bu 1969-yilda qazib olingan ko‘mirdan 465 ming tonnaga kamligini anglatardi.

1966-1970-yillarda shaxta ko‘mir zaxirasi fondlarining tugashi natijasida Qirg‘iziston va Tojikistonda qazib chiqarilayotgan ko‘mirning ham umumiy hajmi ancha pasayib ketgan edi. Shuning uchun O‘rta Osiyo iqtisodiy rayoni va O‘zbekiston xalq xo‘jaligining ko‘mirga nisbatan o‘sib borayotgan talabini “O‘zbekiston Donbassi” deb atalgan Angren qo‘ng‘ir ko‘mir konini to‘liq quvvat bilan ishga tushirish asosida ta’minlash mumkin edi.

⁹ Каххоров А. Ўзбекистон ёкилғи саноати 30 йил ичида. – Тошкент: Ўзбекистон, 1972, 20-бет.

¹⁰ Узбекистан за 7 лет (1959-1965гг.). Краткий статический сборник. – Ташкент: Фан, 1966, стр-26.

¹¹ Народное хозяйство Узбекской ССР в 1967 г. Статический ежегодник. – Ташкент: Узбекистан, 1968. стр. 36.

Angren ko‘mir koni O‘zbekiston iqtisodiyotidagina emas, balki Qozog‘iston iqtisodiyotida ham katta rol o‘ynardi. Angren ko‘miridan foydalanish negizida Angren GRES, Qozog‘iston SSRda Qizilo‘rda va Kentov TESlari hamda Olmaliq TESI barpo etilgan edi. Bundan tashqari Toshkentdagi ayrim sanoat korxonalari, Achchisoy kombinati va Jambul superfosfat zavodi, Qirg‘iziston va Turkmanistondagi ko‘pgina korxonalar Angren ko‘miri bilan ishlardi.

Keyingi yillarda O‘rta Osiyo iqtisodiy rayoni va O‘zbekiston xalq xo‘jaligini ko‘mir ta‘minlash uchun ko‘mir qazib chiqarish kuchaytirilishi natijasida 1975-yilda 5263 ming tonna, 1976-yilda esa 5412 ming tonna ko‘mir qazib chiqarildi¹².

XULOSA

Xulosa shuki, O‘zbekiston tabiiy boyliklardan, xususan yoqilg‘i sanoati muhim hisoblangan neft, gaz va ko‘mirdan yanada to‘laroq va samarali foydalanish respublikaning ishlab chiqarish ixtisosi doirasini ancha kengaytirishga, butun xalq xo‘jalik kompleksini rivojlantirishga, mamlakat ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishda uning umumittifoq mehnat taqsimotidagi hissasini oshirishga imkon yaratdi. Lekin, uzoq vaqt davomida xo‘jalikni rejalashtirish va boshqa organlar tomonidan tabiiy resurslardan to‘g‘ri va ratsional ravishda foydalanish masalalariga yetarli e‘tibor berilmay kelindi. Buning ustiga ular tabiatga undan har qancha foydali mahsulot olsa ham bo‘laveradigan bitmas-tuganmas bir manba deb qarab, tabiatdan faqat iloji boricha tezroq va ko‘proq mahsulot olishga intilib keldilar. Natijada, respublikaning ko‘p joylarida ayrim tabiiy resurslari qayta tiklab bo‘lmaydigan darajada yemirilib ketdi.

Yana shuni aytish kerakki, sovet hukumati O‘zbekistoni yoqilg‘i sanoatini kengayishi ittifoqning sharqiy rayonlari va markazdagi ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar kompleksida respublikani muhim ahamiyat kasb etishiga imkoniyat yaratgan bo‘lsa-da, bundan asosiy foydani respublikadan ko‘ra ko‘proq Sovet Ittifoqi ko‘rdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. ЎзР ПДА. 58-фонд, 276-рўйхат, 689-йиғма жилд, 31-варақ.
2. ЎзР ПДА. 58-фонд, 163-рўйхат, 24-йиғма жилд, 236-варақ.

¹² Файзиёв М, Родимкин Е. Ишлаб чиқарувчи кучларни ривожлантириш ва жойлаштириш. – Тошкент: Ўзбекистон, 1978, 6-бет.
www.sharqjurnali.uz

3. ЎзР ПДА. 58-фонд, 214-рўйхат, 24-йиғма жилд, 1-варақ.
4. Бухоро ВДА, 1168-фонд, 1-рўйхат, 318-иш, 19-варақ.
5. ЎзР ПДА. 58-фонд, 22-рўйхат, 480-йиғма жилд, 11-варақ.
6. Ўзбекистон саноати структурасидаги прогрессив силжишлар. – Тошкент: Фан, 1974, 46-бет.
7. Ақромов З. Ўзбекистон халқ хўжалиги олтинчи беш йилликда. – Тошкент, 1974, 16-бет.
8. ЎзР ПДА. 58-фонд, 276-рўйхат, 689-йиғма жилд, 41-варақ.
9. Қаҳҳоров А. Ўзбекистон ёқилғи саноати 30 йил ичида. – Тошкент: Ўзбекистон, 1972, 20-бет.
10. Узбекистан за 7 лет (1959-1965гг.). Краткий статический сборник. – Ташкент: Фан, 1966, стр-26.
11. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1967 г. Статический ежегодник. – Ташкент: Узбекистан, 1968. стр. 36.
12. Файзиев М, Родимкин Е. Ишлаб чиқарувчи кучларни ривожлантириш ва жойлаштириш. – Тошкент: Ўзбекистон, 1978, 6-бет.